



Nurjahon QAYUMBERDIYEVA,
ToshDO'TAU tayanch doktoranti
E-mail: nurjahon937@gmail.com

ToshDO'TAU professori B.Karimov taqrizi asosida

ZAMONAVIY SHE'RIYATDA OBRAZLASHUV

Annotatsiya

Mazkur maqolada she'riyatning asosiy talabi va ehtiyoji bo'lgan obrazlashuv jarayoni o'rganildi. Zamonaviy she'riyatda obrazlashuvning yangilanishi yosh shoirlar she'rlari misolida tahlilga tortildi. Ijodkor badiiy tafakkuriga aylanib ulgurgan texnologiya vositalarining she'rda obrazlashuvi haqida mulohazalar bildirilib, misollar keltirildi.

Kalit so'zlar: obrazli tafakkur, lirik kayfiyat, sms, quloqchin, "oltinsoch", tabiat lirikasi.

IMAGERY IN MODERN POETRY

Annotation

This article examines imagery, which is a fundamental requirement and purpose of poetry. Imagery in modern poetry was analyzed using the example of poems by young poets. The role of technological tools in poetry, which have become artistic reflections, was highlighted.

Key words: igrative thinking, lyrical mood, sms, earphone, golden hair, nature lyric.

ОБРАЗНОСТЬ В СОВРЕМЕННОЙ ПОЭЗИИ

Аннотация

В статье рассматривается процесс образности, являющийся основополагающим требованием и потребностью поэзии. Обновление образного строя в современной поэзии анализируется на примере стихотворений молодых поэтов. Были высказаны комментарии и приведены примеры изображения технологических инструментов в поэзии, которые стали частью творческого художественного мышления.

Ключевые слова: образное мышление, лирическое настроение, текстовое сообщение, наушники, «золотые волосы», лирика о природе.

Kirish. Shoirlik alomati obrazli tafakkur demak. Obrazli fikrlashdan she'r tug'iladi. Voqelikni obrazli ko'rish ijodkorga xos sifat, yumush, majburiyat. Davr she'riyatning shaklini, mazmunini, mavzusini, sujetini, motiv, uslub, yo'nalishini o'zgartirishi mumkin. Biroq obrazli tafakkur o'zligicha qolaveradi. Davrlar almasha-da obrazlar yo'qolmaydi, ular yangi mazmunlar bilan boyib mukammallashadi. Boqiy tuyumlar obrazlarga singdirilib davrdan davrga yangilanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugunning yosh shoirlari ijodida voea-hodisaga munosabatdan ko'ra lirik kayfiyat ustunligini ko'rishimiz mumkin. Davr ruhiyati evrilishlarini o'zida namoyon etishga bo'lgan ishtiyoq katta. She'rlarda she'rxonga faqat kechinmalar so'zlaydi. Hissiyotlar tafsilotidan boxabar qiladi. Botinning turli burchaklari, "men"likning ming xil qiyofasi bilan tanishtiradi. Tuyg'ular turfa obrazlarda tilga kiradi. Badiiy tafakkur obraz bilan yangilanganini kuzatamiz. Poetik obraz olam va ijodkor olamining birlashuvidir. Unda ijodkorning individual yondashuvi aks etadi. Shu yondashuvsiz ijodkor o'ziga xosligini yo'qotgan bo'ladi. Demak, bugun ijodkori yaratgan obrazning o'ziga xosligi nimada? Obrazlashgan tafakkur mohiyatida qanday xulosalar mavjud? Shu savollarga zamonaviy she'riyatdan, yoshlar ijodidan javob qidiramiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur mavzuni tadqiq qilishda germenevtik, qiyosiy-tipologik, tavsiflash va lingvopoetik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy she'riyatda yarq etgan mukammal obraz ko'zga tashlanmaydi. Abdulla Orif, Shavkat Rahmon, Rauf Parfilar ijodidagi badiiyatning obrazlashuv

darajasi bugun ancha pastlab ketgan. Zamonaviy she'riyatning ajralib turadigan tilla baliqcha, na'matak, yomg'ir, majnuntol, o'rikleri yo'q. Tabiat lirikasi, ob-havoning, fasllarning she'rlarga ta'siri katta. Biroq yorqin obrazlashuv ko'rinmaydi. Yo'l-yo'lakay ba'zi satrlardagina uchratish mumkin. Shoir Shodmonqul Salom kuz elementini shunday obrazlashtiradi:

Yig'olmaydi, labin tishlar ona daraxtlar,
Kiprik qoqmas, xo'rsinolmas, ko'zlari to'lgan.
Labi titrar, kifti uchar, oqargan yuzi,
Kuz olamning yuragiga zo'r vido slogan [5].

Biroq yangilikka intilish bor. Yozuvchilar uyushmasi homiyligida chop etilayotgan "Birinchi kitob"lardagi obrazlarda buni ko'rish mumkin. Jamoliddin Badalov "Menglixon qissasi" she'rda mumtoz shoir Maxtumqulining suyuklisi Menglixon tasvirini yoritgan. She'r

Maxtumquli – Haq qulin
Hiyla bilan yengdi Xon.
Yulib ketdilar gulin
Gulira'no – Menglixon [3]

misralari bilan boshlanib, "hijroningda o'ldim-ay! Yoshim artsam yengim qon. Kimga cho'ri bo'lding-ay, Mungli xonim Menglixon" deya Maxtumquli iztiroblari bilan yakunlanadi. Maxtumquli she'rlarining aksariyati Menglixonga bag'ishlangani bilan o'quvchi tanish. Kuyundi she'rlari ortidagi, davr odaticha, xon saroyining tutqun qushiga aylangan Menglixon obrazi yangi va she'rda yoritilgan ilk obraz deyolamiz.

Poetik obraz shundayki, bir zarrani olib unda hayotning katta haqiqatini, chuqur falsafasini yoritish mumkin. Bunday obraz o'z-o'zicha yaralmaydi. U badiiy g'oya va ko'pdan ko'p

badiiy detallar bilan birgalikda uzilmas xalqani tashkil etadi. Shoir poetik obraz orqali tushuncha, fikr va qarashlar maketini yaratishi mumkin. U o'quvchining dunyoqarashi, adabiy tayyorgarligi, maqsadi va boshqasiga qarab turib turli-tuman talqinlar eshigini ochib boraveradi.

Adabiyotshunos B. Akramov poetik obrazlarni turga ajratar ekan, ularni shartli ravishda lirik-romantik, lirik-publisistik va lirik-falsafiy obrazlarga ajratadi [2]. Shunday tekshiradi va tahlil qiladi. Aslida bu ajratish nisbiy. Shunday obrazlar borki, lirik va falsafiy qatlamlarni birlashtiradi, yana shundaylari borki, ham publisistika, ham falsafiylik mujassam. Voqelikning ijodkor ongida obrazlashuvi ijtimoiy hayot bilan ham bog'liq. Kundalik hayotning bir qismi ijodkor tafakkurida obrazlashmay iloji yo'q. Davr nafasi har qanday ijodiy namunada aks etadi.

Bugun zamon kishisi internet bilan hamnafas. Tarmoqlardan bir kun xabar olmasak ortda qoladigan palladamiz. Shu qatorda yosh ijodkor ham davr oqimida beixtiyor suzadi. Kundalik turmush bilan, to'playotgan axborot bazasi bilan, hissiyotlari bilan bog'liq texnika unsuri she'rda obrazga aylanmay iloj yo'q. Chunki ular badiiy idrokka aylanib ulgurdi.

Bugun zamonga xos texnologiyalardan istagancha misol keltirish mumkin. Masalan, telefon, quloqchin, samolyot, poyezd, metro, avtomobillar va hokazo. Ularning vazifasi haqida ommada umumiy tushuncha mavjud. She'riyatda ham qisman istefoda etilmoqda. Biroq hammasi ham obraz darajasiga ko'tarilib ulgurmagani. Obrazga aylanishi uchun ham ko'plab she'rlarda qo'llanilgan bo'lishi, ma'lum ma'no-mazmunning ramziga aylanishi kerak. Telefonni obraz darajasida desa bo'ladi.

Shoir Shodmonqul Salom bir she'rda epigrafiga D. Mingboyevaning "Yuraginga telefon qiling" jumlasini keltiradi va shunga javoban quyidagi satrlari qoralangan:

Tutqun tuyg'ularni ozod etar tun,
Mot qilib hayoning hakamlarini.
O'tli nafasingiz tinglamoq uchun,
Izlayman qalbingiz raqamlarini.

Ismingiz chiqadi yurak qatidan,
Ijobat istayman tilagingizga.
Ko'ksimga ilingan go'shak – g'am bilan,
Qo'ng'iroq qilman yuragingizga.[5]

O'tgan davr shoiri tunni qog'oz va qalam bilan qarshi olib, kuzatgan bo'lsa bugun qalam bilan yozishga, chiroqqa hojat yo'q. "Chernovoy" ham, saralama ham, kitob ham telefonning o'zi. Shoir quyuq tuyg'ular, ishqli xayollar qurshovida ekan daf'atan "o'tli nafasni tinglamoq uchun" tanish qalb raqamlarini qidiradi.

Demak, shoir ko'ksidagi ilingan go'shak – g'am. Ma'shuqaning yuragi bilan suhbatlashmoqchi. Lekin imkon yo'q:

Tun – bedor. Men bedor. Tuyg'ular horg'in,
Axir o'chgani yo'q tunchirog'ingiz.
Bo'g'zimga alamlar tiqilar shoshqin,
Nega band bo'ladi qo'ng'irog'ingiz?

Doim band bo'ladi qo'ng'irog'ingiz,
Kiprikka qo'nmoqda achchiq shabnamlar,
Yana kimni ado qildi dog'ingiz,
Yana kimga ayon ushbu raqamlar.

Lirik qahramon tergan yurak raqamlari band. Kim bilandir suhbatda. Shu xavotir qiynaydi, "yana kimga ayon ushbu raqamlar"?!. Biroq shoir bilgani faqat shu raqamlar-da. She'r "Ayting, men bezovta qilayin kimni, Axir, menda boshqa raqam bo'lmasa" deb yakunlanadi. Sadoqatli oshiq va bevafo

ma'shuqaning obrazlashgan yangi bir ko'rinishi ifodalangan. She'rning 2004-yilda yozilganini hisobga olsak, telefon obrazining she'rga dastlabki tashriflari hisoblanadi.

Ijodda alohida o'ringa ega, eng intim hislarni mujassamlagan, ko'ngilning nozik kechinmalarini, ichki monologlarni bag'riga olgan, bir insonning boshqa bir insongagina izhori bo'lgan maktub bugun elektronlashib "sms" nomini oldi. Dildan tilga ko'chmagan bor kechinmalar smsga ko'chdi. Sms esa she'rga ko'chdi. Aksariyat she'rlarda duch kelamiz:

Kutavergum, takror kutaman,
Dilim mushtiq, nigohim diqqat.
Telefonni yana titaman,
Ko'rinsaydi sendan kelgan xat...[8]
Yoki
Javobsiz qoladi sevgiling yozgan
Sms, har balo, g'alvay dunyo.
Kim aytar, bu tentak aqldan ozgan,
Kim aytar, chap bilan turganmikan yo.
Yana o'z domiga tortadi muzik,
Mungli qo'shiqlarning tugamas safi.[2]

Telba-teskari shoir holati o'zigada noayon. Sokin ruhiyatiga telefoni hamroh ekan, undan yangragan ohanglar ham tuyg'ulariga qo'shilib ketadi. Xayollar qo'shiq qanotida olislab ketadi. Boshqa she'rlarda ham shuning tasviri. "Mitti quloqchinlar najib dunyodan" shoir quloqlariga "xabar keltiradi":

"Farscha sharkilar"da go'zal bir turku:
Muhammad Mu'tamid Hofizdan aytar.
"Uzixits nuqta net",
sendan iltimos,
zamonamga qaytar.[4]

Ilhomning musiqaga hamohang nuqtasini Mansur Jumayev shunday original tasvirda beradi. "Uzixits.net" o'zbek musiqa portalining nomi. Qo'shiqlar so'ngida portal nomi ham aytib o'tiladi. O'quvchi, albatta, musiqa tinglagan va oxirida bu nomni ham eshitgani tabiiy. She'rda duch kelganda ko'zga tanish bu nom tasavvurda aks-sado beradi va misra mazmunidan ongi yorishib ketadi. Shu she'r davomida shoir

Oltin gitarali oltinsoch yigit
oltin qo'shiqlarin sochadir jonli,
g'arib sevgilarni qiladir ta'kid:
"Ay nov yu von mi tu,
ay nov yu von mi..."

Bu yoshlar o'rtasida o'ta ommalashgan "I know you want me too" nomli inglizcha qo'shiq. "Oltin gitarali oltinsoch yigit" – amerikalik reper ijrosida kuylangan. O'zbekchada "Bilaman, siz ham meni yoqtirasiz" degan mazmun kelib chiqadi. Mazmunidan qat'i nazar ohangi, yo'nalishi bilan omma ko'nglidan, yosh tinglovchilar ko'nglidan joy olib bo'lgan. Yoshlar o'zbekcha qo'shiqlardan ko'ra ko'proq g'ayri tilni: ingliz, rus, turk tillarini tinglaydi. Shoir maqsadi sezgilarga, hissiyotga ta'sir qilish ekan, buni keng iste'moldagi, ko'ngilga joylashgan musiqa yo boshqa element bilan obrazlashtirishi o'rinli. She'r mazmuni qo'shiqlarchalik sayoz emas. Keyingi bandlarda:

Oltinsoch,
"Ra'no"ni aytsayding,
hecham
Ikkilanmay borim berib g'amboda,
Botirim hurmati
Yugnakiygacha
Ketgan bo'lar edim piyoda.

Shoir hamma tinglaydigan g'ayri qo'shiqqa mukkasidan ketmagan. U mumtoz ohangga muhtoj.

“Oltinsoch”ga murojaat qilarkan, agar u Botir Zokirovning “Ra’no” qo’shig’ini aytganida hech ikkilanmay borini berib Yugnakiy mavzesigacha piyoda ketishga rozi edi.

Internetsiz, ijtimoiy tarmoqlarsiz bugun odamini hayot chetlab o’tadi. Ijodkor ham bundan mustasno emas. Asar hayotbaxsh bo’lishi uchun, jonli bo’lishi uchun ijod kishisi zamondan ongli xabardor bo’lmog’i shart. “Onlayn” hayotdan uzoqda bo’lish o’zini oqlamaydi. Tarmoqlarda ham ma’naviy, ijodiy muhit shakllangan. Hamma qatori yozuvchi, shoirlar ham o’z so’zini aytmoqda.

Matbuot safiga “Internet adabiyoti” atamasi ham dadil kirib kelyapti. Buning yaxshi tomoni, ijodiy namunalarni e’lon qiladigan vaqtli matbuotda cheklovlar bo’lishi tayin, g’oya jihatidan, hajm jihatidan, masalan. Biroq yosh ijodkorlar anchagina. Tabiiyki, ularning fikrlari ham shunga yarasha. Ijtimoiy tarmoqlar ular so’zini tinglaydigan keng maydon. Faqat matbuotni o’qib bugungi nazmiy jarayonni baholash noo’rin. Chunki yosh ijodkorlarning hammasi internet tarmoqlarida faol va ochiq segmentda bundan bahramand bo’lish mumkin. Istagan shoir yoki yozuvchining so’nggi yozganlarini kitob, gazeta-jurnal qidirmasdan o’z internet sahifasi yoki boshqa sahifalardan oson topish mumkin. Adabiy suhbat, mushoiralarni kuzatamiz, jonli muloqot muhiti shakllangan. Shu bilan birga ikkinchi tomoni ham bor. She’r nimaligini bilgan-bilmagan o’zini “shoir” deb e’lon qiladi. Bunday yoziqlar kuzatuvchining vaqtini o’g’irlaydi. Ba’zan qora tuynukday yutib yuboradi.

Shoira M. Abbosova she’rida tartibsiz, hayot tizginini internetga berib qo’yan zamondoshimiz obrazini ko’rsatadi:

Naylay ongda chuvalgan simni,

O’ylarimni bosar vazmin yuk.
Bir chetga yashirgan vaqtimni,
Sichqondek kemirar feysbuk.

Ko’ksima quyilar qo’rg’oshin,
Hislarim sudralar og’rinib.
Portlamas yodingga liq boshim,
Telefon ketmaydi yorilib.

Internet va hayot – g’ov miyam,
Sarsonman shul ikki dun ora.
Valiylar tirilib kelsa ham
O’zimdan o’zgasi chikora.[7]

Xulosa va takliflar. Hayotdan olingan she’r o’quvchini ishonтира oladi, sezimlariga ta’sir qiladi, o’zini ko’radi, shoir bilan hamdardga aylanadi. Keltirilgan misollar, mulohazalar zamon hayotining, texnologiyaning tuyg’ularga ta’siridan, hislarga turtkisidan shoirona tafakkurda obrazlashgan ko’rinishlari, she’riyatdagi obrazlashuvning yangi ko’rinishlaridir.

Obraz shoir ifodalamoqchi bo’lgan kechinmani yaxlitlashtiradi, ma’no yukini og’irlashtiradi. Uning mazmunini tushunish bilan butun she’rning mohiyatini anglash mumkin. Ijodkor ba’zan aytmoqchi bo’lgan fikrini ramzlar asosida dalillasa, ba’zan mazmun butunligicha ramzlarga yuklanadi. Ta’sirchan ko’ngilda tevarak-atrofdagi barcha voqea-hodisa aks sado beradi. Yosh shoirlar she’rlarida ifodalangan fikr, ulardagi obrazli ifodalar yillar davomida sayqallanib boradi.

ADABIYOTLAR

1. Акрамов Б. Шеърят гавҳари. Лирикада образ муаммоси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти. 1979 210- б.
2. Abdurashid X. O’sha men edim. – Toshkent: Adabiyot, 2020. 70-b.
3. Badalov J. O’tinch. – Toshkent: Adabiyot, 2022. 120-b.
4. Jumayev M. Hayrat qo’shiqlari. – Toshkent: Adabiyot, 2021, 116 b.
5. Салом Ш. Шеър сайёраси. – Тошкент: Adabiyot, 2020. 263-б.
6. Umurov H. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Xalq merosi, 2004. 245-b
7. http://t.me/abbosova_mehrinoz.
8. K. Shukur. <http://t.me/sherSehri>